

## TIL VA MADANIYAT MUNOSABATI

XAMIDOVA TILOVATXON RAXMATJONOVNA  
Toshkent davlat agrar universiteti Tillar kafedrsi o'qituvchisi  
E-Mail: [miss\\_till11@mail.ru](mailto:miss_till11@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada til, madaniyat, til va madaniyat munosabatlari masalalari yoritilgan. Hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ligvokulturologiya masalalari ko'pchilik olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, biroq ular o'z yechimini xali hanuz topgan emas. Mazkur maqolamiz ayni mana shu masala – tilshunoslikning yangi sohasi - madaniyatlararo munosabatga qaratilganligi bilan e'tiborlidir.

**Kalit so'zlar:** til, madaniyat, ijtimoiy aloqa, madaniy aloqalar, madaniyatlararo aloqa.

### ANNOTATION

This article discusses the issues of language, culture, linguistic and cultural relations. Although linguoculturological problems related to the concept of language and culture, which attract general attention in the field of linguistics, are being studied by many scientists, they have not yet found their solution. This article is notable for the fact that it is devoted to this particular problem - a new area of linguistics - intercultural relations.

**Key words:** language, culture, social communication, cultural communication, intercultural communication

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы языка, культуры, языковых и культурных отношений. Хотя лингвокультурологические проблемы, связанные с понятием языка и культуры, привлекающие всеобщее внимание в области языкознания, исследуются многими учеными, они до сих пор не нашли своего решения. Данная статья примечательна тем, что посвящена

именно этой проблеме – новой области лингвистики – межкультурным отношениям.

**Ключевые слова:** язык, культура, социальная коммуникация, культурная коммуникация, межкультурная коммуникация.

*Til madaniyatning xaritasidir. U bizga millatning tarixi va kelajagi haqida soʻzlaydi.*  
(R.M.Braun)

Til oʻrganish nafaqat alifbo, lugʻat va grammatikani oʻz ichiga olgan murakkab jarayon boʻlib, balki matn mazmunini, masalan, xulq-atvor va madaniy meʼyorlarini ham oʻrganishni oʻz ichiga qamrab olishi zarur.

Har bir millat oʻzida maʼlum bir milliy anʼanalarni aks ettiradi. Yaʼni har bir xalqning, millatning oʻz milliy anʼanalari, urf-odatlar mavjud. Bu maʼnoda har bir inson ana shu milliylikni oʻzida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador boʻladi. Maʼlumki, til ijtimoiy hodisa boʻlishi bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bogʻliqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar oʻrtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning oʻzaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy oʻziga xos koʻrinishi kabi qator va madaniyatshunoslik oʻrtasidagi alohida spetsifik yoʻnalishi va predmetiga ega boʻlgan yangi soha lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab boʻlmoqda. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini oʻrganishni maqsad qilgan-tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi.

Maʼlumki, ilmiy manbalarda moddiy va maʼnaviy qadriyatlar tizimi sifatidagi madaniyat bilan antropologik madaniyat farqlanadi. Antropologik madaniyat urf-odatlar, olam, til, qarindoshlik tizimi, ijtimoiy institutlar va muayyan jamoaga mansub kishilar faoliyatiga qarashlarni qamrab oladi.

Bundan tashqari, madaniyatning lingvomadaniy jamoa texnik va texnologik taraqqiyoti bosqichlariga mos ravishda tilda oʻz inʼikosini topgan faoliyati natijalarini qamrab oluvchi sivilizatsion, milliy xarakter, mentalitet, axloqlilik

ko‘rinishlarini o‘z ichiga olgan ijtimoiy-psixologik va voqelikni bilish, idrok qilish va axborotlarni uzatish usullari haqida dalolat beruvchi modus yoki faoliyat ko‘rinishlari farqlanadi. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan ma‘lum bo‘ladiki, madaniyat komponentlari turli-tuman voqelik hodisalarini qamrab oladi va lingvomadaniy aloqalar tadqiqini faqat lisoniy muloqotlar doirasida amalga oshirish til va madaniyatning o‘zaro munosabatini teranroq o‘rganishni qiyinlashtiradi.

Biz o‘z o‘y-fikrlarimiz va hislarimizni ifodalashda tildan vosita sifatida foydalanamiz. Shu o‘rinda go‘yoki fikr va hislar tildan mustaqildek ko‘rinadi. Biroq til fikrlar shakllanishi, saqlanishida bosh rolni bajaradi. Biz til imkoniyatlari va lisoniy kompetensiyamizga tobe holda aniqroq yoki abstrakt shaklda zohiriy va botiniy olamlarni ifodalay olamiz.

Tillar o‘rtasidagi chuqur semantik farqlar mavjudligi V. Humbold tomonidan ham ta’kidlangan: “har bir til ... ozigaga xos dunyoqarashni o‘z ichiga oladi. Individual ovoz obyekt va shaxs o‘rtasida vositachilik qilgani kabi, butun til ham insonlar va ularga ta’sir etuvchi ichki va tashqi olam o‘rtasida vositachilik qiladi. <... > har bir til o‘z sohiblari atrofida aylana chizadi [3,60]. Bundan ko‘rinib turibdiki, inson o‘z ona tili lug‘at boyligi va lisoniy kompetensiyasining darajasiga bog‘liq ravishda olamni idrok qiladi va tilda ifodalaydi.

Umuman, madaniyat va tilning o‘zaro murakkab munosabatlarida tilni madaniyatning elementi, qismi, fakti, omili, shakli, manbasi, saqlovchisi, xotirasi, tarjimoni, mavjudlik sharti sifatida izohlash mumkin. Til va madaniyat tushunchalarining chambarchas va yaxlitligi dastlab, V.fon Humboldt ishlarida aks etadi. Unga ko‘ra, til millatning «ruhi», ya’ni u madaniyatga ta’sir etish kuchiga ega. V.fon Humboldtning obrazli ta’biriga ko‘ra, «tillar – g‘ildirak izi, unda ruh o‘z faoliyati yo‘nalishini amalga oshiradi yoki boshqacha o‘xshatishda, - o‘zan, unda ruh o‘z hayot to‘lqinlarini surib ketadi» [3,370]. Uning fikrlari lisoniy madaniyatshunoslikning ikki asosiy g‘oyasi, ya’ni «har qanday milliy til milliy madaniyat va jamiyat samarasini ifodalaydi» va «til tuzilishi milliy madaniyat,

olamning milliy manzarasi va etnik shartlangan shaxsning fe'l-atvoriga ta'sir etadi» (Shaklein, 1997:45) shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

V.V.Vorobyov lisoniy madaniyatshunoslikni «tilning o'z faoliyatida madaniyat bilan o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini o'rganuvchi va bu jarayonni birliklarning yaxlit tizimi sifatida ularning lisoniy va nolisoniy mazmunini tizimli metodlar va hozirgi zamon prioritetlari va madaniy tamoyillari bilan birlikda aks ettiruvchi sintezlash tipidagi majmuaviy ilmiy mustaqil fan sohasi», deya ta'rifladi [2,36]. Bundan, til va madaniyatni yaxlitlikda o'rganish va lisoniy birliklar madaniy belgilarini ajratishda sintezlash usulini qo'llash to'liqroq axborotga ega bo'lish imkonini berishi mumkinligi anglashildi.

Madaniyatshunoslik insonning tabiat, tarix, jamiyat, ijtimoiy va madaniy borliqning boshqa sohalariga nisbatan insonning o'zini-o'zi anglashini tadqiq etsa, antropotsentrik nuqtai nazardan tilshunoslik tilda mujassam insonning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. O'ziga xos xususiyatlarga olamni idrok qilish, atrof-borliqning lisoniy ongda aks etishi, zohiriy va botiniy olam hamda uning obyektlarini o'zlashtirish natijalarini til vositalari bilan fiksatsiyalash kiradi. Mentalitet - voqelikni idrok etishning muayyan lingvomadaniy jamoa uchun xarakterli bo'lgan spetsifik usuli va kognitiv stereotiplar majmuidir. [1, 106]

Bobokolonimiz A.Navoiy «tilni xanjarga, so'zni unga qadalgan injularga qiyos qilganlar. Yana bir joyda tilni ochilgan lolaga, so'z durlarini esa unga qo'ngan shabnamga o'xshatganlar» (T.Malik, O'rganish va izlanish). Bundan til birlamchiligi, madaniyatning ifoda vositasi ekanligi anglashiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilsak, til madaniyatning shakli ham, elementi ham emas, til madaniyatning o'zagidir va til madaniyatni o'zida aks ettirish shaklidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: М.: Флинта: Наука, 2013
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология (Теория и методы). – М.:1997
3. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. М.: Прогресс, 1985

4. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent: 1991
5. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. Darslik. – Toshkent: 2020